

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“KELISHILGAN”**  
Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi  
  
«09» 07 2021 y

**“TASDIQLAYMAN”**  
Samarqand davlat universiteti  
rektori R.I.Xalmuradov  
  
«09» 07 2021 y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONLARI**

**5610535-Sport faoliyati (xotin-qizlar sporti yo‘nalishi  
bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun**

**Samarqand-2021**

**Dastur Samarqand davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2021 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - sonli majlis bayoni.**

**Tuzuvchilar:**

|                  |   |  |
|------------------|---|--|
| Kipchakov B.B    | - | SamDU Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, dosent.                             |
| Eshnazarov J.E.  | - | SamDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, professor. |
| Boltayev Z.B.    | - | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası professori.                |
| Do'sanov U.S     | - | SamDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası dosenti.           |
| Qosimov B.Z.     | - | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası mudiri.                    |
| Norboyev K.J.    | - | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası dosenti.                   |
| Nazarov N. B     |   | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi.              |
| O'tayev Z.M.     | - | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi.              |
| Toshmurodov O.E. | - | SamDU Sport pedagogik mahoratini oshirish kafedrası mudiri, dosent.            |
| Babkin V.M.      | - | SamDU Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi.              |
| Raupov O.K.      | - | SamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası mudiri, dosent.     |

**Taqrizchilar:**

- Berdiqulov B.D. Tayloq Olimpiya zaxiralariга ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori, pedagogika fanlari nomzodi.
- Xoshimov A.F. Samarqand viloyat Sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha IBO'SM direktori.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**  
**Samarqan Davlat universiteti**

**5610535-Sport faoliyati (xotin-qizlar sporti yo‘nalishi bo‘yicha)**  
**2021-2022 o‘quv yili qabuli uchun abituriyentlardan qabul qilinadigan ijodiy**  
**(kasbiy) imtihonlarning me‘yoriy talablari, baholash mezonlari hamda**  
**o‘tkazish tartibi**

**Kirish**

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakillantirish, aholining ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustaxkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol topish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb yetish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb yetadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tadbiiq yetib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi, ”Ta’lim” to‘g‘risidagi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ – 2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 3 iyundagi PQ – 3031 – sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ – 3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 10 avgustdagi PQ – 3196-sonli “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga yerishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlarida keng jalb yetish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi, 2017 yil 10 avgustdagi PQ – 3197-sonli “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya insituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017 yil 01 dekabrda PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi, 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 3 maydagi 331-sonli “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil yetish chora-tadbirlari to‘grisida”gi Qaror va 2018 yil 27 iyuldagi 588-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Alohida iqtidor talab yetiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘grisidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi” Qarorlari shular jumlasidandir.

5610535 –Sport faoliyati (xotin-qizlar sporti yo‘nalishi bo‘yicha) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi (BO‘SM, OZIMI) jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan. Abituriyentlarning jismoniy mashqlarni bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Dasturda ijodiy (kasbiy) imtihonni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

### **Dasturning maqsadi va vazifalari**

Dasturning asosiy maqsadi – abituriyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid egallangan bilim, ko‘nikma va malakalari (yengil atletika turlari bo‘yicha maxsus tayyorgarlik) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

Dasturda jismoniy tarbiya fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Ijodiy (kasbiy) imtihonlarni o‘tkazishda har bir abituriyentdan o‘z qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi.

#### ***Engil atletika turlari bo‘yicha:***

- 400 metrga yugurish bo‘yicha sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish;

- Joyidan turib uzunlikka sakrash bo‘yicha sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish.

5610535 –Sport faoliyati (xotin-qizlar sporti yo‘nalishi bo‘yicha) kasbiy (ijodiy) imtihon ballarining maksimal yig‘indisi (summasi) sinov natijalariga ko‘ra – **126** ballni tashkil etadi va turlar bo‘yicha ballar quyidagicha taqsimlangan:

1. 400 metrga yugurish – 63 ball
2. Joyidan turib uzunlikka sakrash sakrash – 63 ball

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi**

- Barcha imtihon sinovlariga abituriyentlar o‘zi bilan sport kiyimi (ust-bosh kiyim, sport poyabzali) hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini (pasport, qabul hay‘ati tomonidan berilgan tilxat va ruxsatnoma) olib kelishi va imtihon komissiyasiga taqdim etishi shart, aks holda abituriyent imtihonga qo‘yilmaydi;

- Predmet komissiyasi raisi va imtihon qabul qiluvchilar abituriyentlarga imtihonlarni topshirish tartibi va qoidalarini tushuntiradilar;

- har bir abituriyentga sport kiyimini kiyish, chigal yozda mashqlarini (razminka) bajarish va imtihon topshirishga tayyorlanish uchun vaqt beriladi;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlarni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kechikib kelgan yoki uning birida ishtirok etmagan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshirishga qo‘yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon sinovlari bir kun davomida (***kuni va vaqti ko‘rsatilgan holda tasdiqlangan jadval asosida***) belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

**400 metrga yugurish.** Pastki start. Har bir yugurishda 2-4 nafar abituriyent qatnashadi. Start va finish chiziqlari joylari aniq belgilangan bo‘lishi shart. Masofani bosib o‘tish davomida yugurishdan yurish holatiga o‘tgan yoki yugurish yo‘lagidan chiqib ketgan abituriyentning natijasi hisobga olinmaydi.

**Joyidan turib uzunlikka sakrash.** Abituriyentlar ro‘yxatga ko‘ra joyidan turib uzunlikka sakrash uchun bir kishidan ajratiladi. Ushbu mashqni bajarish uchun har bir abituriyentga uch martadan urinish beriladi. Natija sakrash chizig‘idan sakrovchini oyoq kiyimini orqa qismigacha xisoblanadi, agar sakrovchi sakraganda qo‘llarni orqaga tirasa natija qo‘llardan xisoblanadi. Sakrash vaqtida chiziqni bossa urinish inobatga olinadi, lekin natija xisobga olinmaydi.

**Yengil atletika bo'yicha 400 metrga yugurish va joyidan turib uzunlikka sakrash qobiliyatini aniqlash yuzasidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash**

**MEZONLARI**

**1. Yengil atletika – 126 ball**

| №   | <b>Sinov-nazorat mashqlarini topshirish me'yorlari<br/>(ayollar uchun)</b> |               |   |               |
|-----|--|---------------|---|---------------|
|     | <b>400 metrga yugurish<br/>(soniya hisobida)<br/>maksimal 63 ball</b>      |               | <b>Joyda turib uzunlikka sakrash<br/>( santimetr hisobida)<br/>maksimal 63 ball</b> |               |
|     | <b>Natijalar</b>   | <b>Ballar</b> | <b>Natijalar</b>  | <b>Ballar</b> |
| 1.  | 1.00.00  | 63            | 240   | 63            |
| 2.  | 1.05.00  | 62            | 238   | 62            |
| 3.  | 1.05.50  | 61            | 236   | 61            |
| 4.  | 1.06.00  | 60            | 234   | 60            |
| 5.  | 1.06.50  | 59            | 232   | 59            |
| 6.  | 1.07.00  | 58            | 230   | 58            |
| 7.  | 1.07.50  | 57            | 228   | 57            |
| 8.  | 1.08.00  | 56            | 226   | 56            |
| 9.  | 1.08.50  | 55            | 224   | 55            |
| 10. | 1.09.00  | 54            | 222   | 54            |
| 11. | 1.09.50  | 53            | 220   | 53            |
| 12. | 1.10.00  | 52            | 218   | 52            |
| 13. | 1.10.50  | 51            | 216   | 51            |
| 14. | 1.11.00  | 50            | 214   | 50            |
| 15. | 1.11.50  | 49            | 212   | 49            |
| 16. | 1.12.00  | 48            | 210   | 48            |
| 17. | 1.12.50  | 47            | 208   | 47            |
| 18. | 1.13.00  | 46            | 206   | 46            |
| 19. | 1.13.50  | 45            | 204   | 45            |
| 20. | 1.14.00  | 44            | 202   | 44            |
| 21. | 1.14.50  | 43            | 200   | 43            |
| 22. | 1.15.00  | 42            | 198   | 42            |
| 23. | 1.15.50  | 41            | 196   | 41            |
| 24. | 1.16.00  | 40            | 194   | 40            |
| 25. | 1.16.50  | 39            | 192   | 39            |
| 26. | 1.17.00  | 38            | 190   | 38            |
| 27. | 1.17.50  | 37            | 188   | 37            |
| 28. | 1.18.00  | 36            | 186   | 36            |
| 29. | 1.18.50  | 35            | 184   | 35            |
| 30. | 1.19.00  | 34            | 182   | 34            |
| 31. | 1.19.50  | 33            | 180   | 33            |
| 32. | 1.20.00  | 32            | 178   | 32            |
| 33. | 1.20.50  | 31            | 176   | 31            |
| 34. | 1.21.00  | 30            | 174   | 30            |
| 35. | 1.21.50  | 29            | 172   | 29            |
| 36. | 1.22.00  | 28            | 170   | 28            |
| 37. | 1.22.50  | 27            | 168   | 27            |

|     |                        |    |                    |    |
|-----|------------------------|----|--------------------|----|
| 38. | 1.23.00                | 26 | 166                | 26 |
| 39. | 1.23.50                | 25 | 164                | 25 |
| 40. | 1.24.00                | 24 | 162                | 24 |
| 41. | 1.24.50                | 23 | 160                | 23 |
| 42. | 1.25.00                | 22 | 158                | 22 |
| 43. | 1.25.50                | 21 | 156                | 21 |
| 44. | 1.26.00                | 20 | 154                | 20 |
| 45. | 1.26.50                | 19 | 153                | 19 |
| 46. | 1.27.00                | 18 | 152                | 18 |
| 47. | 1.27.50                | 17 | 151                | 17 |
| 48. | 1.28.00                | 16 | 150                | 16 |
| 49. | 1.28.50                | 15 | 149                | 15 |
| 50. | 1.29.00                | 14 | 148                | 14 |
| 51. | 1.29.50                | 13 | 147                | 13 |
| 52. | 1.30.00                | 12 | 146                | 12 |
| 53. | 1.30.50                | 11 | 145                | 11 |
| 54. | 1.31.00                | 10 | 144                | 10 |
| 55. | 1.31.50                | 9  | 143                | 9  |
| 56. | 1.32.00                | 8  | 142                | 8  |
| 57. | 1.32.50                | 7  | 141                | 7  |
| 58. | 1.33.00                | 6  | 140                | 6  |
| 59. | 1.33.50                | 5  | 139                | 5  |
| 60. | 1.34.00                | 4  | 138                | 4  |
| 61. | 1.34.50                | 3  | 137                | 3  |
| 62. | 1.35.00                | 2  | 136                | 2  |
| 63. | 1.35.50                | 1  | 135                | 1  |
| 64. | 1.36.00 va undan yomon | 0  | 134 va undan yomon | 0  |

### **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar ijodiy imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zlarining to'plagan ballari yuzasidan bo'lsa qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi a'zolari oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.